
Ruboiyot

Foniy

1

*Tundan qilaman toshta qadar zorliklar,
Hadsan o'gdi tanholigu bemorliklar,
Yuzlandi firoq tufayli dushvorliklar,
Ey yor, qayoqda qoldi ul yorliklar?*

2

*O'tkinchi havaslarga ekansan maftun,
G'am-g'ussadan ozod emassan bir kun,
Bo'lmoq esang Iskandaru Jamdan ustun,
Joy oyinasisiz bu emasdir mumkin.*

3

*To dilda kuchu quvvatu jon bor erdi,
To tanda hayotdan nishon bor erdi,
Dil moyili husni dilsiton^[1] bor erdi,
Jon volai osho 'bi^[2] jahon bor erdi.*

4

*Zuhd ahlidan uz ko'ngilni butkul, ey dil,
Qurgil fano dayrida manzil, ey dil,
Maqsud mayu mutrib ila hosil, ey dil,
Bir-bir aytdim, quloq sol, ey dil, ey dil.*

5

*Ey do'st, halokatlidir ayyomi firoq,
Hijron zahariga qorishiq jomi firoq,
Tug'dirsa visol tonggini gar shomi firoq,
Kechirma sira tutsam agar nomi firoq.*

6

Davr eli jabr etsa, ko'tarma isyon,

*Ko 'n boriga, yo 'q tufayli bo 'lma sarson,
Tinglash kerak emasmi — eshitma pinhon,
So 'zlash kerak emasmi — gapirma bir on.*

7

*Achchiq suv emas, soqiy, olovdan o 'tkir —
Chog 'irni olib, katta qadahga to 'ldir,
Uzrimni qabul qilma, qoshimga keltir,
Yengishta sol-u, so 'ng og 'zima quy bir-bir...*

8

*Sensiz meni(ng) sabrimda faqat nuqsondir,
Ko 'nglimda g 'amingdan alami hijrondir,
Jonim chekibon behuda ranj nolondir,
Bas, menda na sabr-u, na dil-u, na jondir.*

9

*Yor ko 'yida toki benishon bo 'lmassan,
Sen voqifi asrori nihon bo 'lmassan.
Jisming unutib, to lomakon bo 'lmassan,
Loyiqi hayoti jovidon bo 'lmassan.*

10

*G 'am zahri agar qilsa halok, ey soqiy,
Daf' etsang uni may-la ne bok^[3], ey soqiy,
Dil tavbadan o 'ldi jurmnok^[4], ey soqiy,
Boda ila ayla uni pok, ey soqiy.*

11

*Sho 'xsan bu suluvlardan, ayon, ey soqiy,
Oshuftaman o 'zingga nihon, ey soqiy,
May jomini to 'ldirib ravon, ey coqiy,
Ayla meni bexud shu zamon, ey soqiy.*

12

Dayr ichra agarda tilasang ichmoq may,
Sho 'x mug 'bachalardan^[5] eshitib chang ila nay.
Mumkin bo 'lmas agarchi bo 'lsang Jamu Kay^[6],
Qimmat qilmay dayri piri, ruxsat bermay.

13

Lof urmak o 'z ilmidan erur nodonlik,
Nodonligin anglagan bo 'lur irfonlik,
Mushkul qilish ishingni ne kordonlik^[7],
Bir yo 'q olib kelgusi ming osonlik.

14

Jonim ikki la 'li jonfizoyishta^[8] fido,
Ruhim u nasimi atrsoyishta^[9] fido,
Oshufta dilim nozu adoyishta fido,
Farsuda^[10] bu jismim xoki poyishta fido.

15

Har lahza bu charxdan jafolar yetsa,
Davron elidan turfa balolar yetsa,
G'am yo 'q agar ul oydan vafolar yetsa,
Bosh zulfidek bosh o 'pib, vidolar yetsa.

16

Hajringda ishim iztirobdir bu kecha,
Tark etgali jonim-da shitobdir bu kecha,
Jismimda firoqdan ko 'p azobdir bu kecha,
Ogoh bo 'l-ey, dil ishi xarobdir bu kecha.

17

Bu rasmi talabni xudpisand^[11] bilmasdir,
Bu shevani g'ayri niyozmand bilmasdir,
Bu naqsh emas zohidga pisand — bilmasdir,
Bu naqshni g'ayri naqshband bilmasdir.

18

*Soldi meni g'urbat ichra hijroni habib,
Za'fshiddatidan bo'ldim ajal birla qarib,
Bir yor qani — xastaga keltirsa tabib,
Bir zor qani — izlashga kafan o'lsa g'arib.*

19

*To tushdi-yu dilga mehri ul mohliqo,
Qon bo'ldi jigar, ko'zimning yoshi daryo,
Yig'laydi ko'rib bir boshima shuncha balo,
Osmonda qush-u, suvda baliqlar hatto.*

20

*Ey, har nafasishda beadam hamdu sano,
Yuz hamdu sanodan Sen o'zing istig'no^[12],
Aytar malakut makon tugib dayri fano:
«Ilming seni yo'q bizda, ey pok Xudo!»*

21

*Tongning yelidan taraldi bo'ying menga,
Bog' ichra namoyon o'ldi ko'ying menga,
Gul xuddi sening nishoni ro'ying menga,
Lek bo'lmadi ma'lum sira xo'ying menga.*

22

*Dil yo'q — asiri zulfi parishoning emas,
Jon yo'q yana sargashtai hijroning emas,
Deguncha diling endi qadrdoning emas,
Bu jon meniki, degil, sening joning emas.*

23

*Sehr ilmi ko'zing tufayli topdi rivoj,
Bobil ila Kashmirdan ul olgay boj,
Ayyorsifat qilib ul gohi toroj,*

Tandan olar boshni xuddi boshdan toj.

24

*Billur jom ichinda may misoli yoqut,
Topsam uni kecha-kunduz etgaydim qut,
To keksa falak-u, qari osmon sobit,
Aqlu his hayronligi bo'lmis soqit.*

25

*Za'fimga o'shal qil kabi bel bois,
Qatlinga o'shal halqai kokil bois,
Umringa o'shal qomati chun gul bois,
Jonimga o'shal shahdu shakar til bois.*

26

*Yor bo'lmadi menga ul parivash hargiz,
Shod bo'lmadi undan dili g'amkash hargiz,
Kam bo'lmadi bu damimdan otash hargiz,
Bas, olgan emasman nafasi xush hargiz.*

27

*Men o'z vujudimdan parishonman, bas,
Har ishki qilibman, pushaymonman, bas,
Aql menga nasib bo'lmadi — nodonman, bas,
Nodonligima o'zim-da hayronman, bas.*

28

*Ketding-u, g'amingda dil figordir hanuz,
Shavqingdan yoshim shashqatordir hanuz,
Qaytsang-chi, bu jon firoqda zordir hanuz,
Kelgil yana bu dil intizordir hanuz.*

29

*Ketding, seni deb tanimda tobdir^[13] hanuz,
Yodingni qilib, ko'zim purobdir^[14] hanuz,*

*Ishqing o'tida tanim kabobdir hanuz,
Kelgil yana, dil g'amda xarobdir hanuz.*

30

*Soqiy, jomga mayi tarabnok^[15] solgil,
Pok mayga yana aksi ruxi^[16] pok solgil,
Tayyor sho'ru sharga meni bebok — solgil,
To titrasin undan yetti aflok, solgil!*

31

*Ey dil, kuning qildi qaro ahli zamon,
Shundan buyon tun-da hamon, qun-da hamon,
Bir lahza zamonni(ng) jabridan yo'qdir amon,
May ich, tilasang amon, tinimsiz begumon.*

32

*Ishq o'tida kuygan xasta jonman, na qilay?
Devonayu rasvoi jahonman, na qilay?
Sabr menga erur chora, ayon, man na qilay?
Bilsam-da, qilishga notavonman, na qilay?*

33

*To qo'ydi qazo boshimga afsari^[17] ishq,
Dil ichra nihon qildi yana gavhari ishq,
Kirdi qo'la ul afsardan kishvari ishq,
Tushdi dila u gavhardan axgari^[18] ishq.*

34

*Ko'z gulshani yuzingdan gul, lolaga kon,
Ko'z maskani orazing sabab nurga makon,
Ko'z ravzani^[19] yorishmasa yuzingdan, ishon:
Ko'z ravshani zulmat ichra qolgay begumon.*

35

La'li mayidandir hamma sarmastligimiz,

*Sarv qaddidandir yer qadar pastligimiz,
Gar bo 'lmasami fikriga hamdastligimiz,
Yuz o 'giradi nestlikdan hastligimiz.*

36

*Tomning chetidan ko 'rinadi mohsiymo,
Oftob-da bu yuzni ko 'rmagandir aslo,
Ikki qoshing aksi tushdi qo 'zga, sanamo,
Ul nav'ki, shishada bo 'lar qiblanamo^[20].*

37

*Ashkim ummonida yulduz hubob,
Yo 'q-yo 'qki, unda ofarinish^[21] nobob,
Ummon ko 'kiga yulduzdan tushdi tob,
Girdob emas, u devor bo 'ldi hisob.*

38

*Soqiy, menga tutgil qani bir bor qadah,
Cho 'ng bo 'lsa-da gar bir necha miqdor qadah,
Gar bo 'lsa-da misli charxi davvor^[22] qadah,
Bir-ikki simirsam, qolmas zinhor qadah.*

39

*Tokay sitamu mehnati hijronga chiday?
Bir tun seni kosh bu bayt ul-ahzonga^[23] etay,
Vayrona bu dilni(ng) ichdan chokini sitay,
Jon xilvatiga sen ila ul lahza ketay.*

40

*Yor qoshida bo 'lma sira, ey dil, beadab,
Bo 'lgan kabi bu shoh qoshida qul beadab,
Yor vasliga yetgan bo 'lmagay, bil, beadab,
Oqil boadab bo 'lga-yu, johil beadab.*

41

*Sen kelmading-u, ammo quyosh jilva qilar,
Ketding-u, quyosh bo'lsa hali ko'kda turar,
Bas, kech kelib, erta ketganingdan bu qadar,
Ko'z orqali dil qoni yuzimga to'kilar.*

42

*Yo'llabdi bu xastaga u dilbar maktub,
Bildimki, vafo haqda muqarrar maktub,
Giryon bo'ldim ko'rdim-u rahbar maktub,
To'kildim ashk kabi sarosar, maktub.*

43

*Yor, olma qo'lingni kiftimdan bir pas,
Og'zimdanda uzoq tutma qulog'ingni-da, bas,
Yuzing yuzim-u, bo'ynim og'ushingdan abas,
Tandan ruh-u, jismimdan hushni, xullas.*

41

*Sen kelmading-u, ammo quyosh jilva qilar,
Ketding-u, quyosh bo'lsa hali ko'kda turar,
Bas, kech kelib, erta ketganingdan bu qadar,
Ko'z orqali dil qoni yuzimga to'kilar.*

42

*Yo'llabdi bu xastaga u dilbar maktub,
Bildimki, vafo haqda muqarrar maktub,
Giryon bo'ldim ko'rdim-u rahbar maktub,
To'kildim ashk kabi sarosar, maktub.*

43

*Yor, olma qo'lingni kiftimdan bir pas,
Og'zimdanda uzoq tutma qulog'ingni-da, bas,
Yuzing yuzim-u, bo'ynim og'ushingdan abas,
Tandan ruh-u, jismimdan hushni, xullas.*

44

*Bo 'lgach ichima otashi hijron voqe',
Bo 'ldi yuzima ashki farovon voqe',
Qildim harakat boricha imkon voqe',
Lek o 'chmadi o 't bo 'lsa-da ummon voqe'.*

45

*Ishqing o 'tidan ko 'ksimni zo 'rlar dog',
G'am shomida osmonga qadar o 'rlar dog',
O'tdi ichim-u hamda tashimdan har dog',
Bas, qayga qo 'yarman yana kelsa gar dog'?*

46

*Sendan dilu jismi notavonim xurram,
Husningdan chashmi^[24] xunfishonim^[25] xurram,
Qaddingni ko 'rib, ruhi ravonim^[26] xurram,
Jonbaxsh labingdan esa jonim ravshan.*

47

*Ul chehraki, husn avji erur jilvagoh,
Zulfi orasidan soldim unga nigoh,
Boshdan-oyog 'iga boqib, bo 'ldim ogoh,
Hech teng kela olmas unga oftob ila moh.*

48

*Kipriklaring qatlim uchun tortmish saf,
Har o 'qi qilib o 'ziga jonimni hadaf,
Bo 'lg'usi bu jang maydonida umr talaf,
Qochib ketib bo 'lmas undan hech taraf.*

49

*Ey sho 'x soqiy, tut menga bir o 'tli sharob,
Bir qatrasi tomsa, bo 'lsin tosh-da xarob,
Cho 'ng g'am toshi tang dilimga bermish ko 'p azob,*

Shoyad uni yengillatsa bir oz mayi nob...

50

*Do 'stlar bahor chog 'ida suzsa mayi sof,
Ursam-da zuhdu tavbadan men necha lof,
Do 'stlik haqi, qiling-u so 'zimni maof^[27],
Maydan meni mahrum etmang, aylang insof.*

51

*«Kimman bu jahonda?» — deb bo 'lurman hayron,
Yoxud nimaman? Nedanman? Nega bu jon?
Insonmanmi yo tuproq — ermas ayon,
Tuproq haqi, bilmadim, men nechuk inson?*

52

*Ishq otashi ichra jismu jonim oyu yil
Uzini kamolga yetkazishga mashg 'ul,
Hijron do 'zaxiga tushsa, chekmay mushkul,
Alqissa, visol jannatiga o 'tgay ul.*

53

*Surgancha xayol, ey dili devona,
Orzu qilasan yor bo 'lishin hamxona.
Qanday senga hamxona bo 'lar jonona?
Xona qani senda? Bori shu vayrona...*

54

*O 'ldirma meni hajring ila, ey jonon,
Bu g 'amli dilimni etma battar vayron,
Mendan kecha olislaganingga bir on,
Boshimdan aql uchdi-yu, jismimdan jon.*

55

*Faqr ichra boshingda neki bo 'lsa tashla,
Ber qo 'ldagi baxtni — yurma bu tashvish-la,*

Har yaxshi-yomon kelsa shu ikki ish-la

Parvo sira qilma-yu, dilingni xushla!

56

Bo 'stonga kirib keldi bahor karvoni,

Gullar hidiga to 'ldiribon dunyoni,

Lazzat olib g 'unchadan, bo 'lib jononi,

Tushmish ko 'ziga gard nargisi shaydoni.

57

Bir tun agar ul sham 'i saodatpartav^[28],

Mayxonada ko 'hna may uzatsa o 'rtab,

Sabuhiy^[29] umidida xira qilmam tab ',

Jon birla to 'nim unga garovdir, yo Rab!

58

Sozdir kishi ishq ichra mujarrad^[30] bo 'lsa,

Oshiq emas aql-hushga muqayyad bo 'lsa,

Har kim dam urar qabuldan — u rad bo 'lsa,

Da 'vo agar etsa yaxshilik, bad bo 'lsa.

59

To toshtacha kulbang yoritar sham 'i Xo 'tan,

Kun bo 'lsa, jahon kular quyosh nuri bilan,

Shom kirsas, hilol yog 'dusini sochgusi shan,

Yo Rab, shu tariqa bor hayoting ravshan!

60

May quyqasi jomda la 'l kabi jilva qilar,

Oshiqlarini ishqida mast, telba qilar,

G 'am yo 'q g 'amdan, chunki o 'zi tilka qilar,

Har qatrasi joni pok kabi jilva qilar.

61

Zalvorli bir tog ' sari tushgach yo 'l,

*Qalbmni yashirdim, yondi qayg'uda ul.
Orzum shu: jamiyatga butun siltab qo'l,
Dil amri-la tog' etagin etdim manzil.*

62

*Cho'lpon kabi ol yuzing jahonga ziynat,
Jannatni solar yodga hiding, ne hayrat?
Sochsiz bu qadar go'zal emas bu xilqat,
Soching uzun-u, g'ussali tunga nisbat.*

63

*Yuzing seni kavkabi jahonorodir,
Bo'ying seni ashhabi^[31] ravonosodir^[32],
Soch bo'lmasa, jisming xarob, rasvodir,
Soching misoli tun fig'onafzodir^[33].*

64

*Bu maykada rindlarga makon, ey soqiy,
Tortib meni eltdilar uyon, ey soqiy,
Tut menga sharobi arg'uvon, ey soqiy,
Maydan o'lishim bo'ldi ayon, ey soqiy,*

65

*Bu fasli xazon — bargrezon, ey soqiy,
Holim-da go'yo rangi xazon, ey soqiy,
Bu mayda-da shu hol namoyon, ey soqiy,
Undan simiray zamon-zamon, ey soqiy.*

66

*Darvesh elidan gar tilasang kelsin fayz,
O'zingdan ularga avvalo bo'lsin fayz,
Shu xilda g'ariblar boshida kulsin fayz,
Sening-da shu jismu jonishta to'lsin fayz!*

67

*Yomon nimani istamasang, xushxulq bo‘l,
Kasb etma riyoni, to‘g‘ri bo‘lsin ko‘ngil,
Har.yoqqa yurar el, sen tut o‘zga manzil,
Qo‘y elni, yagona mahraming bo‘lsin Ul.*

68

*Bo‘lmoq tilasang agarda sen ahli xavos,
O‘zingni avom suhbatidan ayla xalos
Ham sidqu ixlos yo‘lidan ilgari bos,
Haq zora maqoming etsa xos ahliga mos.*

69

*Ey dil, demakim, mushki nobdir ul xat,
Boisi: mudom bandi xijobdir ul xat,
Oftobga shom xati — xitobdir ul xat,
Yo‘q, yo‘q, g‘alat aytdim, naqshi obdir ul xat.*

70

*Mug‘ dayrida^[34] ul mug‘bachalarki, cholok^[35],
May birla meni qildilar mastu bebok,
Murda kabi bo‘ldi menga-da manzil xok,
Lek mayga garov qilmadilar xirqai chok.*

71

*Xoking seni shohlar kulohining bandi,
Husn shohiga teng emas bashar farzandi,
Xasdek vujudimga yuzing barq monandi,
Chaqsa uzilar jahondan jon payvandi.*

72

*Foniy bu jahon g‘amiga to payvandsan,
O‘zingga o‘zing baqo yo‘lida bandsan,
Nafsing havasiga ko‘milib xursandsan,
Bo‘lsang-da zamonni shohi — hojatmandsan.*

1. ↑ Dilsiton — dilbar, dilrabo: dilni oluvchi, asir qiluvchi.
2. ↑ Osho‘b — g‘avgo-to‘polon, fitna, tartibsizlik. Osho‘bi jahon — jaqonga fitna soluvchi, fitnagar.
3. ↑ Bok — bu yerda: ajab.
4. ↑ Jurmnok — gunohkor, aybdor.
5. ↑ Mug‘bacha — mug‘ (otashparast)lar xizmatidagi bola. So‘fiyona adabiyotda sodiq murid, chin oshiq va soqiy timsoli bo‘lib keladi.
6. ↑ Kay — podshoh, ulug‘ podshoh, shahanshoh; «Shohnoma»dagi qadimiy Eron shohlarining laqabi; sosoniylar sulolasi ulug‘ podshohlarining laqabi yoki ismining bir qismi (masalan: Kayxisrav, Kayqubod, Kaykovus).
7. ↑ Kordon — bilimdon, tajribali.
8. ↑ Jonfizo — jonga rohat beruvchi, jonni quvvatlantiruvchi.
9. ↑ Atrso — xushbo‘y, muattar, xush hid taratuvchi.
10. ↑ Farsuda — horg‘in; to‘zg‘igan; eskirgan.
11. ↑ Xudpisand — xudbin, mutakabbir.
12. ↑ Istig‘no — ehtiyojsizlik, muhtoj bo‘lmaslik.
13. ↑ Tob — bu yerda: harorat, isitma.
14. ↑ Purob — ko‘z yoshga to‘la.
15. ↑ Tarabnok — shod, xursand.
16. ↑ Rux — yuz, chehra.
17. ↑ Afsar — podshohlik toji, jiga.
18. ↑ Axgar — laxcha cho‘g‘, olov.
19. ↑ Ravzan — darcha, teshik, tuynuk.
20. ↑ Qiblanamo — qiblani ko‘rsatuvchi asbob, kompas.=
21. ↑ Ofarinish — yaratish, vujudga keltirish; borliq, koinot.
22. ↑ Charxi davvor — aylanuvchi charx; osmon, falak.
23. ↑ Baytul-ahzon — g‘amxona, kulfat maskani.
24. ↑ Chashm — ko‘z.
25. ↑ Xunfishon — krn sochuvchi, qon tukuvchi.
26. ↑ Ruhi ravon — jon, hayot, tiriklik.
27. ↑ Maof — afv etish, kechirish.
28. ↑ Saodatpartav — saodat nurini sochadigan, xushbaxtlik keltiradigan.
29. ↑ Sabuhiy — ertalabki boshog‘rig‘i uchun ichiladigan may.
30. ↑ Mujarrad — yakka, tanhr, yolg‘iz, ozod. Dunyo ne‘mat va lazzatlarini tark etib, sayri ilallohga munosib bo‘lgan kishi.
31. ↑ Ashhab — oq, oqish bo‘z ot.
32. ↑ Ravonoso — ya«uda ravon.
33. ↑ Fig‘onafzo — xaddan ziyod ko‘p nola qiluvchi.
34. ↑ Mug‘ dayri — otashparastlar ibodatxonasi; majozan: mayxona.